

## INGLIZ VA NEMIS TILIDAGI SANAMALAR VA ULARNING BOLALAR NUTQINI O‘STIRISHDAGI AHAMIYATI

---

*Gavharoy Isroiljon qizi, katta o‘qituvchi  
Komilova Xabibaxon Zafarbek qizi, talaba  
Andijon davlat chet tillari instituti*

**Annotatsiya:** Bu maqola kichik bolalar uchun til o'sishida sanamalardan foydalanishni o'tahlil qiladi. Sanamalar bolalarga sanashni o'rganishga, til ko'nikmalarini rivojlantirishga, xotira saqlashni yaxshilashga, motor koordinatsiyani rivojlantirishga yordam beradi. Ular bolalarni yangi so'zlar, jumlar va grammatik tuzilmalar bilan tanishtiradi. Sanamalar tilni o'rganish uchun samarali vosita bo'lib, ular yodlash nutqni kuchaytirish uchun zamin yaratadi.

**Kalit so‘zlar:** nutqiy rivojlanish, nemis tili, ingliz tili, sanamalar, so‘z, nutqiy ravonlik

## ENGLISH AND GERMAN COUNTING RHYMES AND THEIR SIGNIFICANCE IN CHILDRENS' SPEECH DEVELOPMENT

---

**Summary:** This article explores the use of counting rhymes in language acquisition for young children. Counting rhymes help children learn to count, develop language skills, improve memory retention, and develop motor skills and coordination. They also expose children to new vocabulary, sentence structures, and grammatical patterns. Counting rhymes can be an effective tool for teaching new languages to young children as they rely on memory and repetition to reinforce vocabulary and grammar.

**Keywords:** language development, German language, English language, counting rhymes, vocabulary, speech fluency

## АНГЛИЙСКИЙ И НЕМЕЦКИЙ А СЧИТАЛКА ОДЫШКИ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В РАЗВИТИИ РЕЧИ ДЕТЕЙ

---

**Аннотация:** Эта статья исследует использование счетных стихов в приобретении языка для маленьких детей. Счетные стихи помогают детям научиться считать, развивать языковые навыки, улучшать запоминание и развивать моторику и координацию. Они также знакомят детей с новой лексикой, структурами предложений и грамматическими образцами. Счетные стихи могут быть эффективным инструментом для преподавания новых языков маленьким детям, так как они полагаются на память и повторение для укрепления словарного запаса и грамматики.

**Ключевые слова:** развитие языка, немецкий язык, английский язык, счетные стихи, словарный запас, беглость речи.

**Kirish.** Inglizlarda— counting rhymes yoki counting panting, nemislarda— reimzahl, ruslarda — schitalka, tojiklarda — shumurak, turkmanlarda — sanavoch, tatarlarda — sanashu, ozarbayjonlarda — sanama terminlari bilan nomlanuvchi bu o‘yin turi vatanimizning turli joylarida «sanashlar», «she‘riy sanoq», «sanash qo‘shig‘i», «sanoq», «sanama» nomalari bilan yuritiladi. G‘. Jahongirov uni «sanoq termalari» deb ataydi. Sanamalar mustaqil janr ekanligi hisobga olinsada, mazkur iborada terminlik mohiyati ko‘rinmaydi. «Sanoq» terminida arifmetik anglashilini, shu sababli folklor hodisasi mohiyatini ifoda etish xususiyati zaifroqdir. Shunga qaramasdan, «sanam» mavhumi bolalar folklorlariga xos hodisa mohiyatini butun va qisqa shaklda poetik ko‘tarinkilikda aks ettirgan holda yuqorida aytilgan boshqa xalqlar folklorshunosligida taomilga kirgan atamalarga teng ekvivalent sifatida ilmiy muomala uchun ham tog‘ri termin bo‘la oladi. Sanamalar behad keng tarqalgan, o‘yin boshlanishi oldidan uni boshlab beruvchini aniqlash, biror bola navbatini tayinlashdan iborat. Sanamalar butun o‘yinga kompozitsion asos bo‘lolmasa-da, muqaddima sifatida o‘yin kompozitsiyasi — uzv (komponenti)ini tashkil etadi va o‘sha o‘yinning umumiy yo‘nalishiga poydevor soladi. Bu mas‘ul vazifa sanamalarda raqamlarni «poetik raqsga tushirish», so‘z yoki so‘qma (ma‘nosiz) so‘zni raqam o‘mida sanash intonatsiyasida qo‘llash asosida ritmik o‘ynoqlikka erishish negizida amalga oshiriladi. Bunda sanamalarning leksik xususiyati qanchalik ortirib ko‘rsatilsada, ularningi ritmik ohangdorlikdan xoli holda tasavvur etib bo‘lmaydi

**Sanamalarning turlari** 1. Voqeaband sanamalar. Bu turga mansub sanamalar asosini sanash ritmiga omixta sujet tashkil etadi. Bunday sujetlar m o‘jazgina bo‘lib, bir-biriga mantiqan bog‘langan ikki-uch harakatnigina ifodalaydi. Harakatning mantiqan izchil tartibi sanash ohangini yuzaga keltiradi. Leksik vositalarning barchasi shu sanash ohangini kuchaytirishga bo‘ysundirilgan bo‘ladi. Natijada sanash ritmi raqamlar vositasida ham, sanoq ottenkasidagi ma‘noli so‘zlar vositasida ham qalqib yuzaga chiqib turadi. Shu xususiyatiga ko‘ra voqeaband sanamalar ikki ko‘rinishga ega: a) Raqamlar ritmik asos bo‘lgan voqeaband sanama. Bular da raqamlar «poetik raqs»ga tushadilar. Poetik ijodning boshqa biror turida ular bunchalik nufuzga ega bo‘la olmaydilar. Raqam harakatning mantiqan tartibinigina emas, balki ritmini ham ifodalovchi ohang kasb etib, voqeaband sanamaning kompozitsion yaxlitligini ta‘minlovchi «qon va jon»iga aylanadi. Janming sanama deyilishida 31 ham shu bosh xususiyat inobatga olingan. Raqamlar shunchaki tilga olinmaydi, balki ritmik asosni hosil qilish niyatida vaznga solinadi. Shu sababli bu xildagi poetik sanashlarda barcha raqamlar qatnashmaydi. Ko‘pincha birdan yettigacha, birdan o‘n ikkigacha va birdan o‘n oltigacha bo‘lgan raqamlar qatorigina aktiv qo‘llanadi. Biroq birdan ikkigacha,

uchgacha, to'rtgacha... yettigacha va nihoyat ba'zan o'ngacha to'liq sanalsa-da, qolgan hollarda ritmik ehtiyoj va qofiya ohangdoshligi talabiga ko'ra sakrab o'n ikki yoki o'n olti sanog'i aytib ketilaveradi. b) Sanoq intonatsiyasidagi ma'noli so'zlar asosida qurilgan voqeaband sanamalar. Bunda raqam o'mini so'z egallagan bo'ladi. X o'sh, nega raqam chekindi ekan? Buning ijtimoiy ildizlarini turli xalqlar etnografiyasiga xos taqiqlovchi irimsirimlarda yaqqolroq ko'rish mumkin. M a'lumki, qadim zamonlarda raqamlarga sig'inish, ulami muqaddaslashtirish va fol vositasi sifatida qo'llash ayrim taqiq — (tabu'larni yuzaga keltirgan. D.K. Zelenin «sanashning taqiqlanishi sirlilikni ta'minlovchi vosita» sifatida talay xalqlarda xilma-xil tabulami paydo qilganligiga doir qator misollar keltiradi: rusalarda ovni, ukrainalarda asalari uyasini, chukchilarda bug'uni sanash taqiqlangan. Bunday sanash o'sha narsalarning barakasini uchirarmish. Xuddi shunday aqidaga ko'ra, sibirliklar tuxum va jo 'jani sanashmaydi, ruminlar faqat dushanba kunida narsalami sanashni xosiyatsiz hisoblashadi. Ular eng yomon ko'rgan kishisining narsalarini ovoz chiqarib dushanbada sanashsa — bu qarg'aganlari bo'larkan. Yahudiylar barcha jonlilami sanashni gunoh hisoblasa, polyaklar bola o'g'irlovchilami ilohiy kuchlar nomini sanab aytish evaziga qarg'ashadi.

2. Kumulyativ sanamalar. Uch yoshdan o'n ikki yoshgacha bo'lgan bolalarning fikrlashlari, bayon etishlari ayni holatdagi kayfiyatlariga bog'liq ravishda turlicha kechishi psixologik jihatdan asoslangan. Bu yoshdagi bolalar g'oyatda ta'sirchan bo'lganlaridan ehtiroslar girdobida o'z fikrlarini ravon va mantiqan izchil ifodalashga qiynaladilar. Ular kuchli ifodalansalar yoki aksincha, qattiq xafalansalar — fikrlari to'zg'iganday bo'ladi, aslida esa o'sha ichki taassurotning xush yoki noxushligini chuqur idrok qilib turadilar, faqat uni ifodalashda allaqanliday portlashga o'xshagan fikriy sochiqlik yuzaga keladi. Chunonchi, o'pkasi to'lib yig'layotgan bolaning baqir-chaqirishlarini eslaylik: uning baqir-chaqirishlarida mantiqiy izchillik ko'rinmasa-da, so'zlar bor, iboralar bor, biroq bular poyma-poy, mantiqan tartibsiz. Bola ana shu poyma-poy, mantiqan tartibsiz so'zlar, iboralarida o'z arazini, noroziligini to'lib-toshib arz etgan bo'ladi. M.N. Melnikov bolalar fikrlashlari va nutqiga xos bunday psixik jarayonning maktab ta'limidagi xususiyatlarini shunday ta'riflaydi: «Boshlang'ich sinflarda, ba'zan hatto 5-6-sinflarda ham o'qituvchilar bolalarning o'zaro bog'lanmagan, poyma-poy, tushunib bo'lmaydigan nutqini uchratib turadilar. Bu o'zlariga behad yoqqan urush haqidagi, sarguzashtlarga oid kitoblami» hikoya qilib berayotgan o'g'il bolalar uchun g'oyat xarakterlidir. Bolaning ichki olamida voqealar shiddat bilan yoyilib gavdalanadi, biroq nutq ana shu hayot ko'rinishlarining barcha rang-barang qirralarini ifodalashga ulgurmay qoladi, u ayrim o'zaro bog'lanmagan yoki kam bog'langan kartinalami, obrazlami beradi» Bu kattalarga mantiqsizday ko'rinadi, biroq bolalarning fikrlash yo'sinlariga xos mushtarak psixik xususiyatdir.

3. So'qma sanamalar. Bu xildagi sanamalarning farqli xususiyati shundaki, bularda voqeabandlik (sujet) yo'q, raqam, m a'noli so'z butkul chekingan, faqat

so‘qma (ma’nosiz) so‘z hal qiluvchi poetik mohiyat kasb etgan. X o‘sh, hech qanaqa mazmuni bo‘lmagan so‘qma so‘z qanday qilib poetik mohiyat kasb etishi mumkin? Prof. G.S.Vinogradov bolalar nutqida so‘qma so‘zning pay do bo‘lishi sabablarini shunday izohlaydi: «Bolalar ongli va ongsiz ravishda kuzatuvchandirlar: ular olam go‘zalligini va undagi turli xil xususiyatlarni ko‘radilar va his qiladilar, lekin ularning ixtiyorlarida o‘zlarining olamni qanday anglaganliklarini ifodalovchi bizlarga tushunarli vositalar kam. O‘z tushunchamizdagi olamni biz o‘z tilimizdagi so‘zlar orqali ifodalaymiz, ular vositasida o‘sha hodisalarning xilma-xilligini ifodalashga intilamiz. Bola uchun bunday imkoniyat cheklangan: bunday kezlarda u hech qanaqa chaqiriqlarsiz, og‘ziga kelgan so‘z bilan qanoatlanadi. Narsalar, hodisalar va harakatlar nomlarini o‘rganish o‘zicha bo‘lmaydi, ularni kimlardandir o‘rganish lozim, bolalar esa ularni juda kam bilishadi. Aftidan, tovushlarning aytilishi, so‘zlarning ifodalanishi hamisha kuchlariga mos kelavermaydi, goho hatto og‘irlik qiladi, tovushlarni, bolalar o‘zlarini o‘rab olgan olamdan tayor holda idrok etishadi, idrok eta turib imkoniyatlari darajasida yangilashadi, go‘yo o‘sha olingan holatida hech qanaqa o‘zgarishsiz yana olamga qaytarmoqqa 36 intilishadi»<sup>1</sup>. Shu tariqa, bolalar nutqida «obzlarini o‘rab olgan olamdan, o‘z imkoniyatlari darajasida idrok etilgan va yangilangan» tovushlardan so‘z shaklida tovush birikmalari paydo bo‘ladi. Ular hech qanaqa ma’noga ega bolmasa-da, ohangdorligi jihatidan bolalar qalbiga yaqindir, ularning olamga munosabatlarini ifodalovchi o‘ziga xos vositalardir. Shu sababli so‘z shaklidagi bunday loyush birikmalarini so‘qma so‘z tarzida nomlash an’anaga aylangan. Sirasini aytganda, «so‘qma so‘z, aniqrog‘i, so‘z shaklidagi tovush birikmalari sliartli 110111, liar xil hodisalarni yopadi» (G.S.Vinogradov), bolalar idrok etgan olamni tovushlar ohangdorligi silsilasida ifoda etadi. «Ehtimol, bolalar o‘zlari ijod etgan so‘zlarni boshqalcha idrok qilishar. Aftidan nimadir o‘ylashlariga salgina xalal berganidan ular uchun iste’mollaridagi merosga aylangan so‘qma so‘zlar zapasi bizlar o‘ylagandan ko‘ra xiyla ko‘proq ko‘rinar, ehtimol, kattalarning juda ko‘p so‘zlari ularga slumlday mazmunsiz tuyular. Ammo bolalarda o‘z so‘qma so‘zlari, kattalarga qaralganda, kamroq darajada mazmunsizdir: bu — ko‘p hollarda kattalar uchun ularning diskursiv (sermulohaza, serandisha — O.C.) tafakkurlarida har qanday mazmundan mahrum etilgan tovushlar yig‘masi, tafakkuri butun bo‘lgan, o‘zaro munosabatlar olamida so‘zlarning ichki shakli va tovushlari obrazlilik oralig‘ida hech qanday uzilish ko‘ra bilmaydigan bolalar uchun so‘qma so‘z — tilning asl poydevori — mazmuniga to‘qdir va ehtimolki, bizlarga uni shunchaki shartli ravishda o‘zimizning arshinimizda o‘lchab, kattalarning idrok etishlariga muvofiqlashtirib mazmunsiz deya atagandirmiz». (G.S.Vinogradov). Aslida esa, so‘qma so‘zlar bolalar nutqiga xos hodisa sifatida faqat ulargina anglaydigan mazmunga egaki, bu xilma-xil tovushlarning yig‘ilishib, bir butunlikka aylangan holda tovulanishlari asosida paydo bo‘luvchi sehrli ohangdorligida bo‘rtib turadi. So‘qma so‘zlardagi ana shu sehrli ohangdorligida bo‘rtib

turadi. So‘qma so‘zlardagi ana shu sehrli ohangdorlik ritmga osongina ko‘chganidan uni ustomonlik bilan sanash intsanash intonatsiyasida qo‘llay boshlaganlar, shu asosda so‘qma sanamalar yuzaga kelgan. So‘qma so‘zning sanamalar «qurilish materiali»ga aylanishi — janming to‘la-to‘kis bolalar repertuariga o‘tish jarayonining tugaganligini, kattalar ijodkorligiga xos raqamlarga sig‘inish an‘analaridan batamom tozalanib, bolalar ijodkorligi namunasiga aylanganligini tasdiqlovchi muhim faktdir. Shu ma’noda so‘qma sanamalar janming takomillashgan turi sifatida bolalar poetik folklori arsenalini boyitib, bugungi kunda ham aktiv ijod qilinmoqda

**O‘zbek sanamalariga misollar.** Bolalar o‘yinlari ijod etilibdiki, uning ajralmas detallaridan biri sifatida e’tirof etish mumkin bo‘lgan sanamalar ham paydo bo‘lgan. O‘yinlarning deyarli barchasida bolalar ijodida alohida janr sifatida o‘z takomiliga erishgan sanamalar ijrosi kuzatiladi. Sanamalar – keng tarqalgan o‘yin boshi badihalari bo‘lib, o‘yin boshlanishi oldidan navbatda turuvchini hamda galda qoluvchini belgilash vazifasini bajaradi. “Sariq chumchuq”, “Misha ko‘chaga chiqdi”, “Devor tagida tipratikon”, “Yuzga kirgan oppoq qiz”, “Lagan-lagan”, “Adinam-badinam”, “Bir qop, ikki qop...”, “Itti-bitti...”, “Nemis chiqdi o‘rmondan...”, “Osmondan pichoq tushdi...”, “Harbiy to‘n” kabi sanamalardan bolalar turli o‘yinlarda foydalanganlar. Sanama ko‘pincha “Quvlashmchoq” va “Bekinmchoq” kabi o‘yinlar uchun aytiladi. Negaki, bu o‘yinlarda bir bola navbatchi bo‘lishi talab etiladi. “Quvlashmchoq”da navbatchi bola qochgan bolalarning ketidan quvib, birortasin ushlagunga qadar, “Bekinmchoq”da esa bolalar to‘pana-pastqamga yashirinib ulgurguncha ko‘zini berkitib poyloqchi bo‘lib turadi, so‘ngra ularni izlab, qaysi birinidir topmaguncha o‘yin davom etadi. Ma’lum muddat bo‘lsa-da, o‘yinda navbatchilik qilish barchaga birdek ma’qul kelavermaydi. Shu sababli bunday o‘yinlar jarayonida sanama aytish an‘anasi kelib chiqqan. T.Mirzayev, O.Safarov va D.O‘rayevega ko‘ra (2008) juda ham ko‘plab sanamalar berilgan ularga quyidagilar misol bo‘la oladi:

Sakkiz, sakkiz-o'n olti,  
O'n olti deb kim aytdi?  
Oqqina kuchukcha aytdi?  
Oqqina kuchukcha qani?  
Oqqina kuchukcha o'ldi.  
Bachasi kimga qoldi?  
Bachasi manda qoldi.  
Bachasini bering-chi?  
Qani olib ko'ring-chi?  
Salim qochdi, Halim tutdi

**Ingliz tilidagi sanamalari.** Ingliz tilidagi eng mashhur sanash qo'shiqlardan biriga "One, Two, Buckle My Shoe" misol bo'la oladi. Ushbu ritm bolalarga birdan o'ngacha sanashni o'rganishga yordam beradi va asosiy ketma-ketlik haqida o'rgatadi. Yana bir mashhur inglizcha hisoblash ritmi "Ten Little Indians" bo'lib, unda o'ndan birga qarab sanaladi va bolalarga ayirish haqida boshlang'ich tushunchalar beradi. Bunday qo'shiqlarni sanash nafaqat bolalarning o'qishi uchun qiziqarli, balki muhim til ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Sanamalar til rivojlanishining zaruriy qismi bo'lib, qo'shiqlarni sanash bolalarga qo'shiq so'zlarini tanib olish va nutq ishlab chiqarishni o'rganishga yordam beradi. Bundan tashqari, sanamalar qo'shiqlarni o'qish, bolalarning xotirasi va e'tibor ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Oh Barney, you know what?

What?

I know a number song

Oh you do?

Yeah, do you wanna hear it?

Well sure, Baby Bob

Oh good

One, two, buckle my shoe

Three, four, shut the door

Five, six, pick up sticks

Seven, eight, lay them straight

Nine, ten, begin again

**Nemis tilidagi sanamalar.** Nemischa sanama qo'shiqlar bolalar nutqini rivojlantirish masalasida ingliz tilidagi kabi muhimdir. Nemislarning eng mashhur sanama qo'shiqlardan biri "Eins, Zwei, Polizei" bo'lib, u "Bir, Ikki, Politsiya" deb tarjima qilinadi. Ushbu ritm bolalarga nemis tilida birdan o'ngacha sanashni o'rganishga yordam beradi va ularga asosiy ketma-ketlik haqida o'rgatadi.

Yana bir mashhur nemis sanamasi "Zehn kleine Zappelmänner" bo'lib, unda o'ndan birga sanab o'tiladi va bolalarga ayirish haqida bilib olishga yordam beradi. Inglizlar sanamalari singari nemis sanamalari ham bolalarga qo'shiq, xotira va e'tibor kabi muhim til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Zehn kleine Zappelmänner

Zappeln hin und her

Zehn kleinen Zappelmännern

Fällt das gar nicht schwer

Zehn kleine Zappelmänner

Zappeln auf und nieder  
Zehn kleine Zappelmänner  
Tun das immer wieder  
Zehn kleine Zappelmänner  
Zappeln rundherum  
Zehn kleine Zappelmänner  
Die sind gar nicht stumm  
Zehn kleine Zappelmänner  
Spielen mal Versteck  
Zehn kleine Zappelmänner  
Sind auf einmal weg  
Zehn kleine Zappelmänner  
Rufen laut: "Hurra!"  
Zehn kleine Zappelmänner  
Die sind wieder da

**Xulosa:** Qo'shiqlarni sanash bolalar nutqi rivojlanishining zaruriy bo'g'ini hisoblanadi. Ular bolalarga raqamlarni sanash va ketma-ketlashtirishni o'rganishga yordam beradi, shu bilan birga muhim til ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ingliz va nemis sanamalari bolalar o'rganish mumkin bo'lgan ko'plab turli qo'shiqlarning faqat ikki turiga misoldir. Ota-onalar va ustozlar sanamalarni o'rganishni kun tartibiga kiritish orqali bolalarga kelajakdagi matematik tushunchalar uchun mustahkam poydevorni shakllantirishga yordam beradi, bundan tashqari, sanamalar chet tillaridagi so'zlarni oson va tez o'zlashtirishga ham o'zining ulkan xissasini qosha oladi.

#### References:

1. T.Mirzayev, O.Safarov va D.O'rayeve "O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi" (2008 Toshkent) 416-bet
2. Tabu slov u narodov Vostochnoy Yevropq i Severnoy Azii. 1-tom. Sbor. Muzeya antropologii i yetnografii. -L., 1926 – S. 85-87.
3. Vinogradov G.S. "Russkiy detskiy folg'klor", Irkutsk, 1930, - S.106.
4. Vinogradov G.S. "Russkiy detskiy folg'klor", Irkutsk, 1930, - S.108.
5. Isroiljon kizi, Gavharoy and Abdullayeva, Shahnozaxon (2019) "PROBLEMS OF TRANSLATING IN THE DECLINES OF GERMAN AND ENGLISH," Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 1 : Iss. 2 , Article 35.
6. Tabu slov u narodov Vostochnoy Yevropi i Severnoy Azii. 1-tom. Sbor. Muzeya antropologii i etnografii. L., 1926. - str. 85-87.